

7-10-2019

## WAYS OF IMPROVING MORPHOLOGICAL COMPETENCE

Umida Sadullayevna Abdurasulova

*Namangan regional in-service and retraining center, teacher*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Abdurasulova, Umida Sadullayevna (2019) "WAYS OF IMPROVING MORPHOLOGICAL COMPETENCE," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 3 , Article 72.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss3/72>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [brownman91@mail.ru](mailto:brownman91@mail.ru).

---

## WAYS OF IMPROVING MORPHOLOGICAL COMPETENCE

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

**MORFOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH YO`LLARI**

Abdurasulova Umida Sadullayevna,  
Namangan viloyati XTXQTMOHM  
o`qituvchisi  
[Umida77@inbox.uz](mailto:Umida77@inbox.uz)

**Аннотация:** *Мазкур мақолда тил ва nutq tushunchalari, o`quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish usullari va umumiy o`rta ta`lim maktablarida ona tili darslarida yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo`yicha namunalar berilgan.*

**Калит so`zlar.** *Nutq, til, lingvistik kompetensiya, pedagogik texnologiya, metodlar.*

**ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ МОРФОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ**

Абдурасулова Умида Садуллаевна,  
преподаватель РЦППКРНО  
Наманганской области

**Аннотация:** *В статье приведены образцы использования новых инновационных технологий на уроках родного языка, а также дается анализ понятий, используемых в речи и языке.*

**Ключевые слова:** *речь, язык, лингвистическая компетенция, педагогическая технология, методы.*

**WAYS OF IMPROVING MORPHOLOGICAL COMPETENCE**

Abdurasulova Umida Sadullayevna,  
Namangan regional in-service and  
retraining center, teacher

**Abstract:** *In the article it is said on the analyses of the terms "language and speech", ways of forming linguistic competence of pupils and effectiveness of using modern technologies in process of teaching "Mother tongue".*

**Key words:** *speech, language, linguistic competence, pedagogical technology, methods*

Til - bu insoniyatni millat sifatida shakllanishi va bardavomligini ta'minlovchi mo'jizasi, shaxs sifatida shakllanishi va ma'naviy rivojlanishining zaruriy vositasidir. Tilshunos olim E.Begmatov "Til bu insonning butun borlig'i – moddiy turmushi, madaniy - ma'naviy hayoti, etnik va ruhiy holati, aqlu tafakkuri, estetik olami, o'tmishi, buguni va istiqbolini gavdalantiradigan musaffo oynadir" [1], - deya ta'rifladi, professor N.Mahmudov "Inson tili benihoya murakkab, benihoya ko'p tomonlama, benihoya o'ziga xos muhtasham va muntazam hodisadirki, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilishga ko'pda inson aqli ojizlik qiladi" [2], - deb tilning faqat aloqa-

aralashuv vositasi bo'lmagan, xalq va millat ma'naviy mulkining xazinasini ham ekanligi, uning naqadar ko'p qirrali, mo'jizakor, nodir ne'mat ekanligini e'tirof etadi. Har qanday milliy til kabi o'zbek tili ham o'zbek xalqini birlashtiruvchi, uning milliy ruhini ifodalovchi vositadir.

Umumta'lim maktablarida **ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifalaridan biri** ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

O'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish uchun katta imkoniyatlar ona tilining grammatikasini o'qitishni o'z ichiga oladi, bu o'quvchilarning umumiy bilim olishiga yordam beradi, ularni asosiy qoidalar bilan tanishtiradi, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni bilimni uzatish, uni qabul qilish, anglash, esda saqlash, va amalda qo'llay olishni nazarda tutadi [3]. Bugungi kunda ta'limning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ulardan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berilmoqda. Pedagogik texnologiyalarni qo'llab dars o'tish o'quvchilarda ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va shu asosida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va ro'yobga chiqarish, o'qituvchi - o'quvchi hamkorligini shakllantirish va kafolatlangan yakuniy natijaga erishishni ta'minlaydi, o'quvchini o'quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi.

Ona tilini o'rganish jarayonida oldingi o'tilganlarga tayanib, yangi tushunchalarni o'rganish, guruhlariga ajratish, qiyoslash, umumlashtirish orqali o'zi mustaqil ta'rif chiqarishga o'rgangan o'quvchi bir-biriga o'xshash va farqli hodisalar ustida ishlaydi, o'qituvchi yordamida xulosa va hukm chiqaradi. Mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish, qo'yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, o'quv jarayonini boshqarish yosh avlodda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi [4].

So'zlar atash ma'nosi bilan birga ma'lum grammatik ma'no va uni ifodalovchi shaklga ham ega bo'ladi. Masalan, *olmalarni* so'zi "mevali daraxt", "olma daraxti mevasi" ma'nolari bilan birga "ko'plik", "kelishik" ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi ko'plik shakli (*-lar*) hamda kelishik shakli (*-ni*) ga ham ega. "Mevali daraxt", va "olma daraxti mevasi" ma'nolari bu so'zning atash ma'nosi, qolgan ma'nolar esa grammatik ma'no sanaladi [5]. Har qanday grammatik ma'no ma'lum grammatik shakl orqali ifodalanadi.

So'zlarning grammatik ma'nolari va ularni ifodalovchi grammatik shakllarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi morfologiya sanaladi. Morfologiya yunoncha *morphe* – "shakl", *logos* – "so'z", "ta'limot" so'zlaridan olingan bo'ib, so'z shakllari haqidagi ta'limot degan ma'noni bildiradi. Morfologiyada so'zlarning o'zgarishi va shu o'zgarish bilan bog'liq bo'lgan ma'nolar, so'zlarning tuzilishi, so'z yasash qoidalari o'rganiladi [6]. Morfologiyani o'rganish o'quvchining mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, yangi so'z xosil qilish, ularni o'zaro qièslash va tanlash, tanlab olingan so'zdan nutqda o'rinli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar, asosan, morfologiyaga oid bilimlarni 5-, 6-, 7-sinflarda o'rganishadi. So'zning tarkibi, asos va qo'shimchalar, so'z turkumlari bilan tanishadilar. O'zbek tilida so'zning ma'noli qismlari ma'lum tartibga ega. Ularning joylashuvi quyidagicha bo'ladi:

asos + so'z yasovchi + lug'aviy shakl yasovchi +sintaktik shakl yasovchi.

Barchamizga ma'lumki, 5-, 6- sinf o'quvchilari ertak tinglashni yoqtiradilar. 6-sinf darsligida berilgan "So'z tarkibida tartib" mavzusini o'tishda hamda o'quvchilarda ushbu mavzu yuzasidan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishda bundan foydalanish yaxshi samara beradi.

- **"Uch og'a-ini botirlar"**. Qadim zamonda bir dono, aqlli, har bir so'zi ma'noga limmo-lim bobo yashagan ekan. Boboning ismi *Asosboy* ota ekan. Uning uch o'g'li bo'lgan ekan. Bir kun ota ularni oldiga chaqirib: "Bolalarim, har bir inson hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi zarur, buning uchun esa biror kasb-hunar egasi bo'lish talab etiladi. Hamma uni shu kasb-kori va qilgan xizmatlari orqali esga oladi. Sizlar ham hayotda qiynalmay yashay desangiz, o'zingizga munosib kasb tanlanglar",-debdi.

Shunday qilib har biri o'ziga munosib hunar qidirib yo'lga o'tlanibdi. Ular yil davomida hunar o'rganib, so'ng uylariga qaytishibdi va o'z hunarlari haqida otalariga so'zlab beribdi.

To'ng'ich botir:

- Men o'zimga berilgan narsalardan yangi narsa yaratishni o'rgandim, - debdi.

O'rtancha botir:

- Men o'zimga berilgan narsalarni aslini o'zgartirmay yangi qiyofaga kiritishni o'rgandim, - debdi.

Kenja botir:

- Men esa o'zimga berilgan narsalarni bir-biriga bog'lashni o'rgandim, - debdi.

Ota bu gaplarni eshitib juda sevinibdi.

- Barakallo, har biringiz o'ziga xoz hunar o'rganibsiz. Hayotda yangilik yaratish ham, narsalarni yangi qiyofaga kiritish ham, ularni bog'lash ham juda zarur. Axir ularsiz inson nutqi go'zallashmaydi-da, - debdi.

Aziz bolajonlar, siz ham hayotda biror kasb-hunar egasi bo'lib, o'z o'rningizni topishga harakat qiling!

1-topshiriq. Endi bolalar, uch og'a-ini botirlar qanday qo'shimchalardan foydalanganini aytib bera olasizmi?

<i>To'ng'ich botir</i>	<i>O'rtancha botir</i>	<i>Kenja botir</i>
-chi	-lar	-ning
-bon	-tacha	-m,
-li	-cha	-im

2-topshiriq. Bunda sinf o'quvchilarini uch guruhga bo'lib, har bir guruhga alohida topshiriq bersa ham bo'ladi.

Bular qanday qo`shimchalar va ularning ta`rifini ayting.

1-guruh. **To`ng`ich botir** - so`z yasovchi qo`shimcha.

Asosga qo`shilib, yangi ma`no hosil qiluvchi qo`shimchalar so`z yasovchi qo`shimchalar deyiladi.

2-guruh. **O`rtancha botir** - lug`aviy shakl yasovchi.

Asosga qo`shilib, uning ma`nosiga qo`shimcha ma`no yuklovchi qo`shimchalar lug`aviy shakl yasovchi qo`shimchalar deyiladi.

3-guruh. **Kenja botir**- sintaktik shakl yasovchi.

O`zi qo`shilayotgan so`zni boshqasiga bog`lash vazifasini bajaruvchi qo`shimchalar sintaktik shakl yasovchi qo`shimchalar yoki munosabat shakllari deyiladi.

3-topshiriq. Berilgan qo`shimchalardan so`zlar hosil qiling.

1-guruh		2-guruh		3-guruh	
- chi	ishchi	-lar	kitoblar	-ning	kitobning
- bon	bog`bon	-tacha	beshtacha	-im	kitobim
- li.	gulli	-gan	o`qigan	-m,	keldim

4-topshiriq. Berilgan so`zlardan gaplar tuzing.

1-guruh.

Bog`bon yetishtirgan mevalar elimiz dasturxonini to`ldiradi.

2-guruh.

Uzoqdan beshtacha odam ko`rindi.

3-guruh.

Mening kitobim juda qiziqarli ekan.

Topshiriqni shu tariqa davom ettirish mumkin.

Insonni har tomonlama yetuk etib tarbiyalash va ta`lim berish insoniyatning azaliy orzusi bo`lib, ajdodlarimiz ma`rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodlarga o`rgatish, ularni komillikka yetaklash yo`llari, qonun qoidalarini izlaganlar. Ona tili darslarida o`qitishning bunday usullaridan foydalanish ta`lim oluvchilarda til imkoniyatlaridan to`g`ri, aniq, o`rinli va unumli foydalanish ko`nikma va malakalarini hosil qilish; mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqlol g`oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; o`quvchi shaxsini ma`naviy boyitishdan iborat.

Ularda morfologik kompetensiyalarning shakllantirilishi, dars davomida o`quvchining faqat tinglovchi yoki eshitganini takrorlovchi emas, balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o`zaro hamkorlikda ishlovchi, o`zgalar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga aylantitishda yordam beradi.

**References:**

1. Begmatov E. Antroponimlar – antroposentrik tadqiq obyekti. // O`zbek tili va adabiyoti, 2013- yil, 3-son, 35-bet.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo`llarini izlab...// O`zbek tili va adabiyoti, 2012 -yil 5-son, 3-bet.
3. Ziyomhammadov B. Pedagogika. – T.: Turon-Iqbol, 2006, 102-b.
4. To`xliyev va b. O`zbek tili o`qitish metodikasi. – T.: 2009, 33-b.
5. Mahmudov N va b. Ona tili. -T .: Tasvir, 2017, 20-b.
6. Tursunov U va b Hozirgi o`zbek tili. - T.:O`qituvchi, 1975, 98-bet.